



TO`QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH BO`YICHA MULOHAZALAR

Xudoykulov Mamarasul Radjabovich

*Toshkent to`qimachilik va yengil sanoat instituti Iqtisodiyot kafedrasini
mudiri i.f.f.d.dots. Ma`ruffjonov Qudratillo Nodirbek og`li
Toshkent to`qimachilik va yengil sanoat instituti magistranti.*

Annotatsiya: Ushbu maqola to`qimachilik va yengil sanoat korxonalarini iqtisodiy rivjlanirish masalalariga bag`ishlanadi. Shuningdek, korxonalarni iqtisodiy rivojlanishdagi omillari, imkoniyatlari, ta`minot masalalari va energetika, xom-ashyo yetkazishdagi muammolar, va davlatimiz tomonidan ushbu sohani rivojlanirish uchun qilinayotgan ishlar haqida gap boradi.

Kalit so`zlar: iqtisodiy rivojlanish, investitsiya, xalqaro bozor, fors-major, subsidiya, imtiyozli kreditlar

Аннотация: Данная статья посвящена вопросам экономического развития предприятий текстильной и легкой промышленности. Также обсуждаются факторы экономического развития предприятий, возможности, вопросы и проблемы снабжения в сфере энергетики, сырьевого обеспечения, а также работа, проделанная нашим государством для развития этой отрасли.

Ключевые слова: экономическое развитие, инвестиции, международный рынок, форс-мажорные обстоятельства, субсидия, льготное кредитование

Annotation: This article is devoted to the issues of economic development of textile and light industrial enterprises. Also, the factors of economic development of enterprises, opportunities, supply issues and problems in energy, raw material supply, and the work done by our state for the development of this sector are discussed.

Key words: economic development, investment, international market, force majeure, subsidy, preferential loans



To‘qimachilik va yengil sanoat mamlakat iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan biridir. Ushbu sektor aholini ish bilan ta’minlash, milliy mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish hamda eksport salohiyatini oshirish orqali iqtisodiy rivojlanishda muhim o‘rin tutadi va davlat yalpi ichki mahsuloti hajmiga sezilarli darajada foyda olib keladigan yonalishlardan biridir. Mamlakatlar o‘z to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish orqali xalqaro bozorlar bilan raqobatlashish darajasini oshirishga intiladi. Ushbu maqolada to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalarini iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, imkoniyatlari hamda dolzarb muammolari tahlil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 18-avgustdagi PF-6042-son farmonida investitsiyalarni jalb qilish, ularning ishlab chiqarish va boshqa tarmoqlardagi o‘rni hamda ahamiyati haqida gap boradi.[1] Yangi texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarini joriy etish uchun kapital talab etiladi, buning uchun eng yaxshi yechim investitsiya jalb qilish hisoblanadi. Investitsiyalar sanoatni modernizatsiyalashga yordam beradi ya`ni bror bir korxona investitsiya jalb qilar ekan hoh u moddiy qiymat ko`rinishida yoki uskuna ko`rinishida bo`lsin korxonaga albatta foyda keltiradi agarki yaxshi oylangan va uzoqni ko`zlab ish tutilgan bo`lsa, korxona investitsiya shaklida yangi texnika yoki texnologiyani jalb qilar ekan bu korxonaning iqtisodiy rivojiga hamda uning modernizatsiya bo`lishiga olib keladi. Investitsiyalar ishlab chiqarish hajmini oshirish va sifatni yaxshilashga ham yordam beradi, agar korxona yangi turdagiga dastgohlarni jalb qiladigan bo`lsa bu korxonaga ko`plab foyda va harajatlarni tejashga yordam berishi mumkin. Masalan zamonaviy texnika olib kelinguniga qadar korxona mahsulotni ma`naviy yoki jismoniy eskirgan dastgohlarda o‘z faoliyatini olib borayotgan bo`lsa, yangi turdagи texnikalarni olib kelishi bilan, bir mahsulot ishlab chiqargunga qadar ketadigan vaqtidan yutishi mumkin, ya`ni yangi dastgoh yordamida ishlab chiqarish vaqt tejaladi va bu harajatlarni qisqartirishga yordam beradi, hamda yangi dastgohlar tejamkorligi bilan eski dastgohlardan farq qiladi, ular mahsulot ishlab chiqargungacha bir soat vaqt sarflasa yangi texnologiyalar yordamida esa bu vaqt ikki



uch barobarga qisqarishi mumkin. Mahsulot sifatiga ham investitsiyalar o`zining ijobiy ra`sirini bermay qolmaydi. Yuqorida ta`kidlanganidek zamonaviy uskunalar mahsulot ishlab chiqarishda harajatlarni kamaytirishga, ishlab chiqarishni vaqtini qisqartirishga ham eng asosiysi mahsulotni sifatli bo`lishiga yordam beradi. Innovatsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni kiritish mahsulot sifatini oshirishda va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa eksport hajmini ko‘paytirish hamda xalqaro bozor talablariga moslashishga yordam beradi.

Malakali ishchi kuchini tayyorlash. Kadrlar masalasi sanoatni rivojlantirishda asosiy omillardan biridir. Korxonada zamonaviy dastgohlar bo`lsayu lekin ulardan samarali foydalana oladigan ishchilar bo`lmasa, korxona maqsad qilgan iqtisodiy rivojlanishga erisha o`lmaydi. Ishchilarni yetuk kadr qilib shakillantirish uchun esa ularni malaka oshirish uchun turli hil o`quv dasturlariga kerak bo`lsa chet elga bilim va malakalirini rivojlantirish uchun ham sharoitlar va imkoniyatlar yaratib berilishi kerak. Yengil sanoatda malakali ishchilar mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun investitsiya jalg qilish barobarida ishchilarni ham yetuk kadr qilib tayyorlay olish kerak.

Eksport salohiyatini oshirish orqali yengil sanoat korxonalarini xalqaro bozorga chiqishi mumkin agar korxonalar xalqaro bozorga chiqsa o`lsa ular birinchi navbatda o`zlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmini, mehnat unumdarligini, mahsulot sifatini yuqori darajaga olib chiqgan bo`ladilar. Xalqaro bozorga chiqishi bilan esa iqtisodiy rivojlanishga erishgan deb aytса bo`ladi.

To‘qimachilik va yengil sanoat korxonalarini rivojlantirishda quyidagi imkoniyatlar mavjud: Ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish .Eksport salohiyatini kengaytirish .Innovatsiyalarni joriy etish .[3]

Ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish. Tarmoqning samaradorligini oshirish uchun klasterlash tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu yirik va kichik korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiya hamda logistika xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Eksport salohiyatini kengaytirish. Mamlakatlarda ishlab chiqarilgan to‘qimachilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarda raqobatbardosh qilish, eksport



imkoniyatlarini oshiradi. Shu bilan birga, tashqi savdo bitimlari va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish to‘qimachilik sohasidagi yangi bozorlarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash imkoniyati mavjud. Bu esa mahsulotlarning global talabga mos kelishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalarining iqtisodiy rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi muammolar ham mavjud:energiya va xomashyo ta’mnoti muammolari,kapitalga bo‘lgan cheklovlar,bozor sharoitlarining o‘zgaruvchanligi.[4]

Xomashyo uzliksiz yetkazib berilishini ta`minlash uchun bir nechta usullardan foydalanish mumkin bulardan biri mahalliylashtirish, ya`ni bu usul bilan korxonaga mahsulotni chet eldan yoki ishlab chiqarish hudidan uzoqda joylashgan taminotchi bilan emas balki korxonaga yaqin hududlarda joylashgan taminotchilar bilan ishlashi mumkin bu orqali ishlab chiqarish smaradorligini oshirgan holda, harajatlarni va yetkazish vaqtini ham sezilarli darajada qisqartirishi mumkin. Bu esa ta`minot masalasiga ya`ni ta`minotni uzliksiz bo`lishiga yechim bo`la oladi.

Energiya ta`minotiga tohtaladigan bo`lsak, elektr energiyasi sanoatning asosiy energiya manbai hisoblanadi.Ba`zi holatlarda fors major holatlari sodir bo`lganda elektr liniyalaridan energiya olish imkon bo`lmay qoladi, shunday holatlarda ishlab chiqarish uzliksizligini ta`minlash maqsadida qayta tiklnuvchan energiya manbalaridan foydalanish samarali usullardan biri hisoblanadi.Qayta tiklanuvchi energiya turlariga quyosh, gidravlik, shamol, geotermik va biomassalar kiradi. Bu energiya turlari ekologik jihatdan ham bezarar hisoblanadi. Hozirgi kunda yurtimizda ham ushbu energiyamanbalariga otish uchun davlatimiz tomonidan qarorlar va loyihalar amalga oshirilmoqda,bunga misol qilib “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish” to‘g‘risidagi Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 16-aprelda qabul qilingan.Senat tomonidan 2019-yil 3-mayda ma’qullangan qonunni ham aytishimiz mumkin[2] Sanoatning uzluksiz ishlashi uchun energiya resurslari va xomashyo yetkazib berishning barqaror bo‘lishi talab etiladi. Ushbu masalalarning hal qilinmagani ishlab chiqarish jarayonining sustlashishiga olib kelishi mumkin.



Yana bir e`tibor qaratilishi lozim bo`lgan masala moliyaviy qo`llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish. Bunda sanoat korxonalariga imtiyozi kreditlar ajratish, subsidiyalar berish, ma`lum vaqtga qadar soliqlardan ozod qilish kabilar moliyaviy qo`llab quvvatlashga misol bo`la oladi. Sohani iqtisodiy rivojlantirish uchun quyidagi yo`nalishlar taklif etiladi: Davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash siyosati. Davlat tomonidan to`qimachilik va yengil sanoatga soliq imtiyozlari, kreditlar hamda subsidiyalar berish orqali korxonalarni rag`batlantirish kerak. Shuningdek, davlat-hususiy sheriklikni rivojlantirish orqali innovatsiyalarni kiritish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Ilg`or texnologiyalardan foydalanish. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali korxonalar ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va energiya samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo`ladi. Tashqi bozorlarga chiqish strategiyasini ishlab chiqish. Eksport bozorlariga chiqishni rag`batlantirish uchun xalqaro savdo yarmarkalari va ko`rgazmalarda ishtirok etish, hamkorlikni mustahkamlash kerak.

Xulosa qilib aytganda to`qimachilik va yengil sanoat korxonalarini iqtisodiy rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotiga ijobiylar ta`sir ko`rsatadi. Sektoring innovatsiyalar va investitsiyalar orqali rivojlanishi, eksport salohiyatini oshirish hamda raqobatbardoshlikni ta`minlash muhim vazifalardan biridir. Ushbu sohaning davlat tomonidan qo`llab-quvvatlanishi va xususiy sektoring faol ishtiroki rivojlanishning muhim omili bo`lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

LEX.UZ Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo`yicha Hukumat komissiyasi to`g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida LEX.UZ Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to`g`risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 16-aprelda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 3-mayda ma`qullangan Karimova, N. A. (2021). To`qimachilik sanoatini modernizatsiyalashning zamonaviy usullari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabrdagi PQ-3454-sonli qarori. Yengil sanoatni rivojlantirish va modernizatsiyalash bo`yicha 2020 yilgacha bo`lgan chora-tadbirlar dasturi.